

XIZMAT KO'RSATISH SOHASIDA TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI

Sh.Sh.Shomurodova

SamISI mustaqil izlanuvchisi

Respublikamizda infratuzilma obyektlari va ijtimoiy ahamiyatga ega loyihalarni realizatsiya qilish uchun DXSHning asosiy afzalliklari – tashkiliy-iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida qo'llash, qisqa davrda ijtimoiy loyihalarni realizatsiya qilish, davlat obyektlariga xususiy mablag'larni jalb qilish, ta'mirlash va espluatatsiya qilishga davlat harajatlarini qisqarishi, avtomobil yo'llarini saqlash, xususiy mablag'lar hisobiga infratuzilma obyektlarini moliyalashtirish, davlat va xususiy subyektlar o'rtasida risklarni taqsimlash; ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlanishida zamonaviy texnika va texnologiyalarni joriy etish imkoniyatlarining mavjudligini namoyon etmoqda.

Ishbilarmon doiralari, ya'ni tadbirkorlik subyektlari uchun DXSHning afzalliklari – tashkiliy-iqtisodiyotning davlat sektoriga kirishni qo'llab-quvvatlash, davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanish, xorijiy mamlakatlar tajribasidan to'liq foydalanish imkoniyatlariga ega bo'lishini yuzaga keltirmoqda.

Davlat uchun DXSHning ustun jihatlari xususiy sektorning ishtiroki hisobiga loyihalar samaradorligini oshishi, davlat tomonidan xususiy mablag'lar hisobiga muayyan soha yoki tarmoqni rivojlantirish bo'yicha muhim masalalarni hal qilish imkoniyatlari, budjet harajatlarini kamaytirish, xususiy moliyaviy mablag'larni keng ko'lamda jalb qilish, tejalgan budjet mablag'lari hisobiga hududlarning ijtimoiy-tashkiliy-iqtisodiy barqarorligini mustahkamlash va raqobat darajasini oshishi kabi omillar asosida aniqlanadi.

Yuqoridagi DXSH mexanizmini amal qilishining afzal jihatlari hisobga olgan holda uning muhim xususiyatlarini aniqlaymiz. Ular qo'yidagilardan iborat:

tashkiliy-iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash va ijtimoiy rivojlanish maqsadlariga erishish;

davlat investitsion loyihalariga xususiy sektor mablag'larini jalb qilish;

davlat infratuzilmasi obyektlarini bunyod etish, foydalanish, modernizatsiyalash, texnik xizmat ko'rsatish, rekonstruksiya qilish;

davlat xizmatlari ko'rsatish;

davlat sektori va xususiy tadbirkorlar o'rtasida uzoq muddatli hamkorlikni o'rnatish imkoniyati;

teng sheriklikka asoslangan o'zaro manfaatli hamkorlik;

risk, vakolat va mas'uliyatni sheriklar o'rtasida taqsimlash;

DXSH shartnomasini tuzish.

Xulosa sifatida ta'kidlash kerakki, umumiy holatda DXSH subyekti sifatida infratuzilma obyektlariga investitsiyalar kiritish va ushbu obyektlar ko'magida xizmatlar ko'rsatish orqali muayyan DXSH loyihalarini realizatsiya qilish bo'yicha davlat va xususiy sektorning o'zaro munosabatlari jarayonida yuzaga keladigan munosabatlarni ko'rib chiqish mumkin.

Jahon amaliyotida DXSHning maqsadi budget mablag'laridan foydalanish samaradorligini oshirish va budgetdan tashqari manbalardan jalb qilingan qo'shimcha investitsiyalar hisobidan hamda davlat sektori xizmatlari sifatini oshirish orqali hududiy darajada jadal ijtimoiy-tashkiliy-iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashdan iborat. Infratuzilmani rivojlantirishning davlat siyosati bo'yicha DXSH xususiy tashkilotlarni resurs va kapital sig'imi yuqori infratuzilma loyihalarini amalga oshirishga jalb etish hamda davlat infratuzilmasi tarmoqlarining rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan.

Risklarni taqsimlash DXSH munosabatlari uchun zaruriy shartdir. Shuningdek, eng katta qiyinchilik loyihaning o'ziga xos xususiyatlari, ya'ni tarmoq, moliyalashtirish shartlari va shartnoma turiga qarab risklarni optimal taqsimlashni tashkil etishdan iborat.

Xalqaro tashkilotlarning milliy tashkiliy-iqtisodiyotlar hukumatlariga tavsiyalarida DXSHning quyidagi asosiy tamoyillari ko'rsatilgan:

qonuniylik (ya'ni, DXSH to'g'risidagi qonunchilik tizimining mavjudligi);

budget mablag'laridan, davlat va mahalliy mulkdan foydalanish samaradorligi (ya'ni, konkret holatda DXSH loyihasini amalga oshirish infratuzilmani va uni boshqarishni davlat tomonidan moliyalashtirishning an'anaviy usullariga qaraganda yuqori samaradorlikni ta'minlashini asoslash zarurati);

davlat-huquq subyektlari tomonidan DXSH bo'yicha o'z zimmlariga olgan majburiyatlarni bajarish zarurati (ya'ni, davlat tomonidan xususiy shaxs oldidagi majburiyatlarga rioya qilish, shartnoma amal qilish muddati davomida huquqiy normalarni o'zgartirmaslik zaruriyati);

ishtirokchilar o'rtasida kamsitishning yo'qligi (DXSH tuzish huquqi uchun tanlovda qatnashish uchun tashkilotlarning teng hamda shaffof foydalanish huquqi);

shartnoma bo'yicha tomonlarning vijdonan va o'zaro manfaatli hamkorligi (davlatning xususiy sektor manfaatlarini hisobga olishi va loyiha bo'yicha barcha moliyaviy majburiyatlar va risklarni uning zimmasiga yuklamasligi);

DXSH haqidagi ma'lumotlarning ochiqligi (biznes vakillari va ekspertlar hamjamiyatining loyihalarni tayyorlash va amalga oshirish to'g'risida ma'lumot olish, uning ishonchliligini tekshirish va investitsiya qarorlarini qabul qilishda foydalanish imkoniyati);

aholi manfaatlarini hisobga olgan holda (shartnomada tomonlarning shaxsiy manfaatlari DXSHning asosiy maqsadi – hududni rivojlantirish, unda aholi uchun qulay yashash sharoitlarini ta'minlashga zid bo'lmasligi kerak);

tashkiliy-iqtisodiy asoslanganlik (infratuzilma obyektini budget mablag'lari hisobidan rekonstruksiya qilish qiymati va muddati DXSH mexanizmini qo'llash asosida infratuzilma obyektini rekonstruksiya qilish qiymati va muddatidan ortiq bo'ladi);

tashkiliy-iqtisodiy samaradorlik (DXSH loyihasini realizatsiya qilish harajatlarining bunday loyihani amalga oshirishga tayyorgarlik ko'rish bilan bog'liq harajatlardan oshib ketishi);

DXSH sohasini davlat va hududiy tartibga solishni amalga oshiruvchi davlat fuqarolik va mahalliy xizmatchilarning malakasi;

DXSH shakllarining o'zgaruvchanligi (turli xil maqbul huquqiy shakllardan shartnoma shaklini tanlash imkoniyati).

Xalqaro ekspertlar, shuningdek, davlat yoki hududda DXSH tamoyillarini amalga oshirish muvaffaqiyatini baholash imkonini beruvchi bir qator omillarni ajratib ko'rsatadilar:

DXSH mexanizmlaridan foydalangan holda davlat infratuzilmasi obyektlarini yaratish (rekonstruksiya qilish) uchun jalb qilingan budgetdan tashqari mablag'lar ulushi;

realizatsiya qilinayotgan loyihalar soni;

DXSH sohasida institutsional muhitni rivojlantirish;

DXSH loyihalari doirasida aholiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmi.

Ma'lumki, xorijiy amaliyotlarda qo'llaniladigan ba'zi nazariy yondashuvlar va tamoyillar respublikamiz qonunchiligiga mos keladi va unda o'z aksini topgan.

Murakkab mexanizm bo'lgan DXSH mexanizmi murakkab tarkibiy elementlarni o'z ichiga olib, ushbu mexanizmni rivojlantirish va boshqarish jarayoni muayyan tamoyillarga rioya etishni zarurat etadi va ularni ishlab chiqishni talab qiladi.

Bizning fikrimizcha, yuqorida keltirilgan umumiy tamoyillarga asoslangan holda DXSH rivojlanishining xususiy tamoyillarini ishlab chiqdik va ular quyidagilarni o'z ichiga oladi:

hukumatga hamkorlik va o'zaro munosabatlarning turli shakllari rivojlanishini ta'minlovchi hamkorlarni tanlashning adolatli va oshkora tartiblariga rioya qilish;

qo'shimcha qiymat olish kafolatini ta'minlash. Bunda bir xil harajat evaziga yuqori sifatli xizmatlar yoki bir xil sifatdagi xizmatlarni arzonroq narxda olish nazarda tutiladi;

eng muhim davlat xizmatlari, ayniqsa, aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlari uchun ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatini oshirish, hamkorlik va o'zaro munosabatlarning yangi shakllariga jalb etiladigan shaxslarning tegishli o'qitilishni tashkil etish;

barcha uchun adolatli rag'batlantirish tizimini joriy etish hamda tijorat muvaffaqiyatiga erishishda muayyan risk va majburiyatlarni o'z zimmasiga olganlar uchun harajatlarni qoplash va himoya qilish kafolatlari;

xizmatlarning uzluksiz ko'rsatilishini ta'minlaydigan va loyiha muvaffaqiyatsizliklari va ular bilan bog'liq samarasiz davlat harajatlarining oldini oladigan nizolarni oqilona hal qilish;

DXSH tuzilmalariga xizmatlar ko'rsatish ishonchliligini oshirish maqsadida yangi chaqiriq va tahdidlarga qarshi turish qobiliyatini mustahkamlash.

Hamkorlikning boshqa tamoyillari ham davlat-xususiy sheriklikda tartibga soluvchi sifatida ta'sir ko'rsatadi. Shuni ta'kidlash kerakki, ushbu tamoyillar garchi ular u yoki bu institutsional shakllarni modernizatsiya qilingan tashkiliy-iqtisodiy otning doimiy o'zgaruvchan sharoitlariga moslashtirish jarayonida doimiy ravishda tahrir qilinsa-da, har doim tegishli shartnomalarda (shartnomalarda) mustahkamlanadi.

Hozirgi vaqtda dunyodagi ayrim mamlakatlarining ijtimoiy-tashkiliy-iqtisodiy rivojlanish darajasi uning samaradorligini baholashning muhim mezon sifatida ham makrotashkiliy-iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash va tashkiliy-iqtisodiy o'sishga erishishni, shu bilan bitga aholi turmush darajasining oshishiga olib kelmoqda. Tashkiliy-iqtisodiy rivojlanishning sanoat taraqqiyotidan keyingi bosqichida tashkiliy-iqtisodiy barqarorlikka erishish omillarining o'rni va ahamiyati o'zgarimoqda.

Bunda innovatsion jozibadorlikni oshirish omili sifatida axborotlar, nanotexnologiyalar va inson kapitali asosiy resurslar (ishlab chiqarish omillari)ga aylandi. Raqamli tashkiliy-iqtisodiy otning shakllanishida bevosita inson omili va salohiyatiga e'tibor qaratish hal qiluvchi rolga ega bo'lmoqda.

Xizmat ko'rsatish sohasi barcha sohalarning drayveriga aylandi va aholining zamonaviy talabini qondirish ham shu soha orqali amalga oshmoqda. Demak, xizmat sohasini rivojlantirish va takomillashtirish davlat islohoti bilan bevosita bog'liq.